

**AMIR MUZAFFAR VA ROSSIYA BOSQINI.**

Namangan davlat universiteti.

Ijtimoiy fanlar fakulteti tarix

Yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Muhammadiyev Bilol Ismoil o'g'li

E-mail: bilolmuhammadiyev5@gmail.com

Tel: +998957707796

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Buxoro amiri amir Muzaffarni taxtga chiqishi, ruslarga qarshi kurashi, ruslar bilan shartnomasi, mamlakatni boshqaruv tizmi, ruslar bilan aloqalari yoritiladi.*

Kalit soʻzlar: *Amir Muzaffar, Chernyayev, K.P. Kaufman, Toshkent, Jizzax, Oʻratepa, Oqjar janggi, Zirabuloq janggi.*

Amir Nasurullohxon vafotidan keyin taxtga oʻtirgan Muzaffar bir mudad mustaqil amir sifatida Buxoroni boshqardi. U taxtga chiqan davrda Rossiyaning Oʻrta Osiyo hududlarga bosqinini birinchi davri oʻtib borayotgan edi. Anashunday vaziyatda Muzaffar toʻgʻri siyosat yuritishga olmadi. Bosqin aniq boʻlishiga qaramasdan uni oldini ola olmadi. Oxir oqibat ruslar mamlakatni bir qismini egallab olib, qolganini amir boshqaruvda qoldirib protektoratga aylantirdi.

Amir Nasurulloh 1860 – yilda Kenagasxonimni fitnasi natijasida 21 – sentabir kuni vafot etdi. Amir Muzaffar otasi vafotidan keyin taxtga 1860 – yil 23 – sentabirda chiqdi. Baʼzi manbalarda Nasurulloh taxtni oʻlimi oldidan yolgʻiz oʻgʻli Muzaffarga emas, koʻp sonli nabiralaridan biriga qoldirganini deyiladi.[4. – B 34-35].

U ham oʻz avlod-ajdodlari izidan borib amirlik hududlarini kengaytirish maqsadida qonli urushlar olib boradi. Butun Fargʻona vodiysini zabt etib Qashqar hududlarigacha yetadi. 1865-yilda Muzaffarxon ikkinchi marta Qoʻqonni oʻziga tobʻe etib Xudoyorxonni Qoʻqon taxtiga tiklaydi. Muzaffarxonning amirlik davri Buxoro tarixining eng ogʻir va dahshatli qora davrlariga toʻgʻri keladi. Amir Muzaffarxon otasi



davrida mansabda boyigan amaldorlarni bo'shatadi, mol-mulklarini musodara qiladi, Karmanaga surgun qilingan kishilar yana poytaxtga keltirilib, ularga mansablar beradi. U shu yo'i bilan o'z mavqeyini mustahkamlamoqchi bo'lgan. Bu esa aslida kishi bilmas davlat va sulola qudratiga berilgan zarba edi.

Karmanadan keltirilib mansabga tayinlangan kishilar xalq boshiga og'ir kunlarni solganlar. Amir Muzaffar 1863 – 1865 – yillarda Hisor va Qo'qonga harbiy harakatlarni olib boradi. Natijada qo'shin ham zaiflashib qoldadi. Muzaffar otasi davrida ko'plab janglarni ko'rib chiniqan sarkardalarni qatil qilib, ularni o'rniga harbiy sohada umuman xabari bo'lmagan kishilarni tayinlaydi. Ruslar bosqinida bu lavozim egalari qochib ketgan.[2. – B 88-89]

Toshkentni bosib olayotgan paytda Buxoro amirligi mudofachilarga yordam bermadi. Amir Muzaffar Rossiya imperyasi Qo'qon xonligiga qanchalik qattiq zarba bersa shuncha ruslardan mamnun bo'ldi. Toshkentni bosib olgan ruslar bevosita Buxoro amirligi hududlaiga hujum boshlashga harakat qildi.

Muzaffar urish bo'lishini anglab, Jizzax mudofaasini mustahkamlashni yo'lga qo'ydi. Natijada devor bilan o'raglan Jizzaxni mudofaa quvati ancha oshdi. General Chernyayev 1865 – yilning 1 – fevralida Mirzacho'l orqali Jizzaxga yaqinlashdi. Shu vaqtda Jizzax mudofaachilari shahardan chiqib dushmanga zarba beri. Ruslar Sirdaryo tomonga chekindilar. Ular ortidan quvib kelgan 8 – 10 minglik mudofaachilar jang qilib g'alabaga ershdilar. 1866 – yil 5 – aprelda Mirzarabotdagi joyda 2 – 3 mingli Buxoro askarlari ruslar tomonidan mag'lubiyatga uchratildi. Buxoroda nafrat va norozilik yanada kuchaydi. Muzaffarxon umumiy safarbarlik elon qilishga majbur bo'ldi.

Manbalarda keltirilishicha 1866 – yil may oyi boshida 100 ming kishilik qo'shin bilan Sirdaryo tomon yurib Oqqar degan joyga o'rnashti. Bu yerda ular bir soat davomida o'q yog'dirganlardan keyin, ruslar ham to'plar va miltiqlardan javob zarbasini berdi. Otliq askarlar hujum qilib turganlar. Ruslarni to'plaridan ko'plab kishilar vafot edi. Tirik qolganlar turli tomonga qarab qochdilar. Bu paytda chodirga shahmat o'ynab o'tirgan amir Muzaffar mulozimlardan biriga, to'pxona boshlig'i Salimbek va askar qo'mondoni Sherahli inoqa, rus xazinasini talon – taroj qilinmasin,



ruslar ko'p o'ldirilmay asirlika olishni, ular Buxoro amirligi qo'shiniga xizmat qilishi va tartib o'rnatishga jalb qilinishini yetkazishini aytdi. Amir Muzaffar o'z qo'shinini son jihatdan ustunligini inobatga olib, g'alabaga ishongan edi. Ruslarni qo'li baland kelayotganini ko'rgan amir Muzaffar Buxoroga qochishga majbur bo'ldi. Oqjar jangida ruslarga boshchilik qilgan Romanovskiyo Xo'jandni qamalga oldi. Ko'plab to'plardan o'qlar yog'dirildi. Shahar aholisi taslim bo'lish to'g'risidagi taklifini qabul qilmay jangdi davom etirishdi. Ammo sotqinlar tomonidan shahar darvozasi ochib berilishi natijasida, ruslar shahar ichiga kirib ko'plab odamarni qirib tashladi. Harbiy kuch borasida ustun bo'lgan ruslar Xo'jandni 1866 – yil 24 – may kunida egallab, shahar darvozasi kalitini Petirburga yubordilar.

1866 – yil sentabirda ruslar O'ratepani o'qa tutdilar. 1 – oktabirdagi ikki o'rtadagi urushda, himoyachilardan 2500 kishi o'ldirildi. Ruslar shaharda uch soat davomida odam o'ldirish va boylik o'marish bilan shug'ulandilar. O'ratepa egalangandan keyin Zomin qal'asi qo'lga kiritdilar. Ruslar tomonidan navbatdagi egalangandigan shahar, Jizzax bo'lgan. Jizzaxda 10 ming himoyachi va 53 ta to'p bor edi. Jizzaxda juda qattiq kurash bo'ldi. Himoyachilar mardonovor kurashdilar, hato bir gururh odamlar qarshilik ko'rsatish iloji qolmagach o'zlari porox omoriga kirib portlatib yubordilar. Jizzaxda 3 ming kish o'ldirilgan. Ruslar katta boyliklarga ega bo'lganlar. 1868 – yil aprel oyi oxirida Turkuston general gubernatiri K.P. Kaufman qo'shin bilan Zarafshon daryosi bo'yiga joylashdi. Buxoro qo'sinlari 12000 piyoda askar, 3000 otliq, 1500 to'pchi va jami yuz ming kishi (ko'ngili himoyachilar ham mavjud) Cho'ponotada turgan. Ular bosqinchilarga qattiq qarshilik ko'rsatdilar, ko'p kishilar qahramonchalarcha o'ldilar. 1868 – yil 2 – may kuni kurashlar natijasida, lashkarboshilarni nodonligi va bir guruh nufuzli sotqinlar fitnasi bilan Samarqand egalandi. 3 – may kuni Samarqand egalanganini eshitgan Muazffar qahru – alami shu darajaga chiqdiki, xabarchini dorga ostirdi. “ Samarqand qo'ldan ketguncha xudo jonimni olsa yaxshiroq bo'lari” deb yig'lagan ekan Muzaffar. [1. – B 30 – 33].

Amir Muzaffar ruslar bilan bir necha bor shartnomalar imzolashga majbur bo'ldi. Jumladan ulardn biri, 1868 – yil 23 – iyun kuni sulh shartnomasi – Buxoro bilan Rossiya qo'shinlari o'rtsida bo'lgan Zirabuloq jangidan keyin Samarqanda



imzolangan. Bu shartnomaga ko'ra Buxoro amirligining Xo'jand, O'ratepa, Jizzax, Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlaridan Zirabuloqqach abo'lgan hududlari Rossiya imperyasi tarkibiga kiritildi va Turkuston general – gubernatorligi tarkibida Zarafshon okrugi (keyinchalik Samarqand viloyat) tashkil qilindi. Amir Muzaffar olti hisobida 500 000 rubl harbiy tovon to'ldi.

Rossiya imperyasi Buxoro amirligini butunlay tugatmasdan uni protektaratiga aylantirdi va siyosiy agent yordamida uni nazorat qilar edi. 1873 – yilda 28 – sentabirda shartnoma imzolandi. Unga ko'ra Buxoro amirligi Rossiya imperyasi homiyligi ostidagi tobe hudud deb e'lon qilindi. Zarafshon daryosini yuqori qismi – Sharqiy Buxoro (Badaxshon va Pomir)dagi ayrim viloytlar Rossiyaga o'tdi. Amudaryoni chap sohilidagi yerlar esa (Balx, Mozori Sharif, Shibirg'on, Qunduz va b.) Afg'onistonga berildi. Buxoroni xorijiy davlatlar bilan mustaqil aloqa qilishi ta'qiqlandi.[5. – B 129]. Amir Muzaffar o'z hukumronligini dastlabki paytlarida ulamolarga deyarli e'tibor bermadi, ular bilan biror – bir masala yuzasidan maslahat ham qilmadi. Ammo ruslardan uchralgan mag'lubiyatdan keyin amir ulamolarga yon berishga majbur bo'ldi. Chunki ulomolar mahaliy aholini ruslarga qarshi kurashishga harakatlantira olardilar. Lekin fursat qo'ldan boy berilgan edi. Ulamolarni xalqni harakatga ko'tarishi ham, amirni o'g'li Katta To'ra (Abdumalik) Kitob va Shahrisabiz beklarini ham say-harakatlari natija bermadi. Amir Muzaffar hukumroligi davrida amirlik hududi ancha isqardi. Bunga ruslar bosqini sabab bo'lgan bo'lsa, katta qiyinchilik bilan bo'ysintirilgan Shahrisabiz va Kitob bekliklari yana Buxoroga bo'ysinisdan bosh tordi. Bundan tashqari ruslarga to'langan o'lpon natijasida xazina ham bo'shab qolgan edi. Amir Muzaffar o'g'li Abdulahadni taxt vorisi etib elon qildi. Abdulahadni shu yili Rossiya imperyasini imperatori Alikssandir III taxtga o'tirish marosimiga katta sovg'a salomlar bilan yubordi. Aleksandir III rasman Abdulahadni taxt vorisi ekanini tastiqladi. Amir Muzaffar 1885 -yil vafot etdi.[3. – B 290].

Xulosa qilib aytganda Buxoro amirligini Amir Muzaffar boshqargan davr eng og'ir paytlar bo'lgan. Jumladan ruslar bosqini aniq bo'lishiga qaramasdan, zarur choralar ko'rish o'rniga Qo'qon xonligi hududlariga yurishlar uyushtirdi. Ruslar Toshkentni egalaydigan mahalda Buxoro amiri yordam bermadi. Ruslar hujimi



Buxoroga bo'lganda ham amir beparvo edi. Chunki rus qo'shiniga nisbatan Buxoro qo'shinini soni ko'p edi. Son jihatdan ustun bo'lsada sifat darjasi, qurol – yarog'i va harbiy mahorati o'ta soda bo'lgan qo'shini himoya qudrati uzoqa bormasligini bilmadi. Bu paytda faqat uchala xonlikni itfoq qutqarib qolar edi. Ammo tarix hukmi shunday bo'lgan. Ruslar O'rta Osiyoni katta qismini bosib oldi. Uzoq yilik shakilangan davlatchilik, urf odat va diniy qarashlar ruslar tomonidan poymol qildilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. H. Ziyoyev. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida.(XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari). – T.: “SHARQ”, 2006. 352 b.
2. R.Shamsutdinov, Sh. Karimov,O`. Ubaydullayev Vatan tarixi 2 -Toshkent: Sharq- nashiryot matbaa aksiyadorlik kompanyasi bosh tahriryati, 2010.368b.
3. Б.Эшов, Узбекистон давлатчилиги ва бошкарув тарихи. Тошкент - узбекистон тарихи кафедраси. 2012. 456.
4. К.Ражабов, Насруллохон - Тошкент: Абу Матбуот- консалт, 2011.49b
5. К. Ражабов. С. Инятов. Бухоро тарихи – Тошкент: “ Tafakkur” наширёти. 2016. 465 b.